

Zokir ARIFDJANOV,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF
UZBEKISTAN,

Teacher of the department of Uzbek language
and classical oriental literature.

z.arifdjonov@iiia.uz,
zokir-zarrinpaint@inbox.ru

FORS TILIDAGI FE'LLARNING SEMANTIKASI VA MORFOLOGIK STRUKTURASI

СЕМАНТИКА И МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ПЕРСИДСКИХ ГЛАГОЛОВ

SEMANTICS AND MORPHOLOGICAL STRUCTURE OF PERSIAN VERBS

ANNOTATSIYA. Maqolada fe'llarning so'z yasashidagi o'rni sâxtan fe'li misolida ko'rib chiqilib, 53 dan ziyod yangi so'z va 25 dan ortiq yangi murakkab fe'llar yasashida ishtirok etishligi hamda sâxtan fe'li qo'shma fe'llarning ikkinchi komponenti sifatida ham bir qancha qo'shma fe'llarning yasashida faol ekanligi aniqlanadi va misollar orqali asoslanadi.

Kalit so'zlar: sodda fe'llar; prefiksli fe'llar; qo'shma fe'llar, fe'l ishtirokida yasalgan iboralar.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается роль простых глаголов в словообразовании на примере глагола sâxtan. Выявляется, что глагол sâxtan участвует в образовании более 53 новых слов и более 25 новых сложных глаголов, а также активно используется в качестве второго компонента сложных глаголов и выводы обосновываются на примерах.

Ключевые слова: простые глаголы, префиксные глаголы, составные глаголы, глагольные фразы.

ABSTRACT. The article examines the role of simple verbs in word formation using the example of the verb sâxtan. It is revealed that the verb sâxtan participates in the formation of more than 53 new words and more than 25 new complex verbs, and is also actively used as the second component of complex verbs, and the conclusions are based on examples.

Key words: simple verbs, prefixed verbs, compound verbs, verbal phrases, intransitive verbs.

KIRISH

Barcha tillarda bo'lgani kabi fors tilida ham fe'l tilda gap yasashida faol ishtirok etadigan eng muhim leksik unsurlardan biri hisoblanadi. Eronlik tilshunos olim Parviz Notil Xonlariyning fikricha "fe'l kesimni ifodalaydigan eng muhim unsur hisoblanib agar gap faqatgina bir so'zdan tashkil topgan bo'lsa ushbu so'z, albatta, fe'l so'z turkumiga mansub bo'ladi. Gap tuzilishi fe'lsiz amalga oshmaydi" [20:13-14]. Shuningdek, H. Anvari, H. Ahmadiy Givi [4], Sh. Mohutiyon [17], U. Tabibzada [26] kabi boshqa ko'pchilik eronlik tilshunoslar ham fe'lni gapning eng asosiy unsuri sifatida eslatib o'tishgan.

ASOSIY QISM

Rus eronshunoslaridan Y.A. Rubinchik esa fors tilida fe'lning boshqa gap bo'laklari orasida muhim o'rin tutishiga to'xtalib uning "nafaqat ma'nolar boyligi va xilma-xilligi, balki qo'llanilish shakllarining ham ko'pligi jihatidan ajralib turishi"ni eslatib o'tadi [22:197].

Biroq fors tilida fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari to'g'risida turli qarashlar mavjud. Bizga ma'lumki, Y.A. Rubinchik fors tilidagi fe'llarni tuzilishiga ko'ra quyidagi uch turga bo'ladi: 1) sodda fe'llar; 2) prefiksli fe'llar; 3) qo'shma fe'llar [22:204-229]; Ammo bundan ancha oldin Eron tilshunos olimi P. N. Xonlariy o'z tadqiqotlarida fors tilida fe'llarning tuzilishiga ko'ra besh turi mavjudligini aytib, fe'llarning yuqorida keltirib o'tilgan uch turdan tashqari yana ikki tur: fe'l ishtirokida yasalgan iboralar (عبارت های فعلی) va o'timsiz fe'llarni (فعل های ناگذر) ham fe'l turlari sifatida eslatib o'tsa [20:43-76], boshqa eronlik tilshunoslar H. Anvari va H.A. Giviy fors tilidagi fe'llarni tuzilishiga ko'ra quyidagi olti turga bo'lib ko'rsatishadi: 1) sodda fe'llar (فعل های ساده); 2) prefiksli fe'llar (فعل های پیشوندی); 3) qo'shma fe'llar (فعل های مرکب); 4) prefiksli qo'shma fe'llar (فعل های پیشوندی مرکب); 5) fe'l ishtirokida yasalgan iboralar (عبارت های فعلی); 6) bir shaxsli o'timsiz fe'llar (فعل های لازم یک شخصه) [3:18-74].

Y.A. Rubinchikdan farqli ravishda eronlik tilshunoslar tomonidan eslatib o'tilgan fe'lning

prefiksli qo'shma fe'llar, fe'l ishtirokida yasalgan iboralar va bir shaxsli o'timsiz fe'llar kabi turlari rus va o'zbek eronshunosligida qo'shma fe'llar jumlasidan hisoblanadi.

Fors tilidagi fe'llarning soni boshqa tillarda mavjud bo'lgan fe'llar soniga nisbatan kamroq bo'lib, "Farhang-e fārsi-ye emruz" ("Hozirgi fors tili lug'ati") [23] muallifi G'ulomhusayn Sadriafshorning aytishicha: o'tmish davrlardan hozirgacha bo'lgan fors tilida 600-700 atrofida fe'l mavjud bo'lib ularning ham katta qismini qo'shma fe'llar tashkil etadi [11]. Y.A. Rubinchikning aytishicha, fors tilining fe'l tizimida so'z yasash usullari anchagina cheklangan bo'lib, sodda va prefiksli fe'llarning ushbu tildagi boshqa so'z turkumlaridan farqli ravishda asosan fors tilida soni uncha ham ko'p bo'lmagan so'z yasovchi affikslar yordamida, ya'ni affiksatsiya usuli bilan yasalganligini ko'rish mumkin. Biroq ushbu eronshunosning aytishicha, hatto ana shu affiksatsiya usuli bilan yangi fe'llarning yasalishi ham ilgari zamonlarda yuz bergan bo'lib, hozirgi fors tilida yangi sodda va prefiksli fe'llarning yasalishi deyarli yuz bermayapti [22:204]. Bularning barchasi hozirgi fors tilida sodda va prefiksli fe'llarning qo'shma fe'llarga nisbatan anchagina kam bo'lishiga sabab bo'lgan.

Muhammad Bashir Husayn "Forsiy fe'llar ro'yxati va ularning ma'nolari" nomli kitobida 8ta mo'tabar lug'atdan va qadimiy forsiy asarlardan 2000dan ortiq sodda fe'llarni to'plashga muvaffaq bo'lgan va ularning ma'nolarini izohlab alifbo tartibida keltirib o'tadi [27]. Biroq, ushbu kitobda bir sodda fe'lning ma'lum leksik va grammatik o'zgarishlarga uchragan turlari hamda arxaizmga aylangan fe'llarni ham alohida fe'l sifatida ko'rsatish orqali ularning soni ikki mingtadan oshib ketgan, vaholanki, mazkur ro'yxatdan o'rin olgan sodda fe'llarning 10 dan 9 qismi hozirgi fors tilida deyarli ishlatilmaydi.

P. N. Xonlariy o'tmish tilshunoslari va leksikograflarining sodda fe'llar sonining ko'pligi haqidagi fikrlarini tanqid qilgan holda fors tilidagi sodda fe'llarning soni uch yuztaga ham yetmasligini eslatib o'tadi [18:44], boshqa bir tadqiqotchi S. Karimiy aynan hozirgi fors tilida real qo'llanuvda bo'lgan sodda fe'llarni nazarda

tutgan holda ularning soni ko'pi bilan 130 taga yetishi mumkinligi to'g'risida gapiradi [14]. Yana bir eronlik tilshunos A. Sodiqiyning fikricha esa hozirgi fors tilidagi yozma va og'zaki nutqda ko'pi bilan 115 ta sodda fe'l ishlatiladi [25:236-246]. Boteniy ham o'zining "Fors tili bemahsuldir [28]" nomli maqolasida Tehron universiteti talabalarining og'zaki va yozma nutqda qo'llaniladigan sodda fe'llarning sonini aniqlashga oid amalga oshirgan tadqiqotlari natijalarini keltirib o'tadi. Bunga ko'ra sodda fe'llar soni 115 dan yuqoriroqni tashkil qilgan va agar hozirgi kunda yozma va og'zaki nutqda ishlatilayotgan lekin ishlatilish chastotasi kam bo'lgan sodda fe'llar ham qo'shiladigan bo'lsa, ushbu raqam 150-200 tani tashkil qilishi aniqlangan.

Fors tilidagi fe'llarning, ayniqsa, sodda va prefiksli fe'llarning soni unchalik ko'p emasligi, buning ustiga hozirgi kunga kelib yangi sodda va prefiksli fe'llarning yasalishi yuz bermayotganligi o'z navbatida ish-harakat bilan bog'liq bo'lgan bir necha ma'noning bir fe'l vositasida ifodalanishiga, bu esa o'z o'rnida fe'lning ko'pma'noli so'zga aylanishiga sabab bo'ladi.

Albatta, buning aksini ta'kidlaydigan tadqiqotchilar ham bor. Jumladan, eronlik tadqiqotchi L. Sharify fors tilidagi sodda fe'llarning soni kam ekanligining asosiy sabablaridan biri sifatida ularning ko'pma'noli ekanligini ko'rsatadi [15:12]. Eronlik tadqiqotchining ko'pma'nolilik sodda fe'llar sonining kam bo'lishiga sabab bo'lganligi haqidagi xulosasiga qo'shilmagan holda uning *ندافتا* [oftādan] fe'li misolida fors tilidagi ko'pgina sodda fe'llarga ko'pma'nolilik xos ekanligi tog'risidagi fikrini ma'qullash mumkin deb o'ylaymiz. Zero haqiqatdan ham fors tilidagi sodda fe'llarning ko'pchiligi ko'pma'noli bo'lib, ayni bir sodda fe'lning turli o'rinlarda har xil ma'nolarni ifodalashda ishtirok etishi keng tarqalgan holat hisoblanadi. Buni *نستساوخ* [xāstan] sodda fe'lining leksik-semantik variantlari misolida ham ko'rish mumkin:

خواستن [xāstan] fe'lining Ali Akbar Dehxudoning "Lo'g'atnome-ye Dehxo'do" qomusiy lug'atida [8] ikkita ma'nosi: 1) *so'ramoq, iltimos qilmoq*; 2) *talab qilmoq*; Muhammad Muinning "Farhang-e Mo'in" izohli lug'atida [16:1449] ushbu so'zning

yettita ma'nosi: 1) *so'ramoq, iltimos qilmoq*; 2) *talab qilmoq*; 3) *istamoq, xohlamoq*; 4) *orzu qilmoq, tilamoq*; 5) *ehtiyoji bo'lmoq*; 6) *buyurmoq*; 7) *chaqirmoq, chorlamoq*; Hasan Amidning "Farhang-e Amid" izohli lug'atida [1] uning to'qqizta (jumladan, ikkita arxaik) ma'nosi: 1) *so'ramoq, talab qilmoq*; 2) *mayli bo'lmoq, moyil bo'lmoq*; 3) *niyatida bo'lmoq*; 4) *yaxshi ko'rmoq, sevmok*; 5) *chaqirmoq, chorlamoq*; 6) *ehtiyoji bo'lmoq, kerak bo'lmoq*; 7) *ko'z tutmoq, kutmoq, umid qilmoq*; 8) *orzu qilmoq*; 9) *istamoq, xohlamoq*; Hasan Anvariyning "Farhang-e bo'zo'rg-e So'xan" izohli lug'atida [2:2853-2854] esa خواستن [xāstān] ning o'n sakkizta (jumladan, oltita arxaik va beshta so'zlashuv nutqida uchraydigan) ma'nosi: 1) *so'ramoq, talab qilmoq*; 2) *chaqirmoq, chorlamoq*; 3) *qarzini so'ramoq*; 4) *ehtiyoji bo'lmoq, kerak bo'lmoq*; 5) *niyatida bo'lmoq*; 6) *mayli bo'lmoq, moyil bo'lmoq*; 7) *yaxshi ko'rmoq, ko'rgisi kelmoq*; 8) *ko'z tutmoq, kutmoq, umid qilmoq va h.k.* keltirilgan. Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atida [21:573-574] خواستن [xāstān] so'zining oltita ma'nosi to'rt ma'no qatorida keltirilgan: 1) *istamoq, xohlamoq; niyatida bo'lmoq, ...moqchi bo'lmoq*; 2) *so'ramoq, iltimos qilmoq; chorlamoq, taklif qilmoq*; 3) *chaqirmoq, chaqirtirmoq*; 4) *ehtiyoji bo'lmoq, unga kerak bo'lmoq*.

Fors tilidagi fe'llar ichida eng kam sonli bo'lgan prefiksli fe'llarda ham ko'pma'nolilik holatlarini kuzatish mumkin. Misol:

برداشتن [bar-dāštan] 1) (joyidan) *olmoq, ko'tarmoq, ko'tarib olmoq*; 2) *olib olmoq, olvolmoq, o'ziga olmoq*; 3) *ko'chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (nusxa, surat va sh.k.)*; 4) *to'ldirmoq, bosib ketmoq, qoplab olmoq (suv, ovoz va sh.k.)*; 5) *yig'ib-termoq, yig'ib-terib olmoq (hosilni)*; 6) *olmoq, sotib olmoq*; 7) *birga olib olmoq, birga olib chiqmoq, birga olib yurmoq, birga olib ketmoq*; 8) *chidamoq, chidash bermoq, ko'tarmoq, ko'tara olmoq*; 9) *o'rtadan olib tashlamoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq*; 10) *o'g'irlamoq, urib ketmoq*; 11) *olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (tana a'zosi va sh.k.)*; 12) *olib qo'ymoq, boshqa joyga qo'ymoq*.

Bundan tashqari fors tilidagi sodda va prefiksli fe'llar qo'shma fe'llar tarkibida ko'makchi fe'l

vazifasida kelib asosiy ma'nolaridan boshqa ma'nolar ham yaratishi mumkin. Misol:

یقین دانستن *afzal ko'rmoq*, برداشتن *ishonchi komil bo'lmoq* va h.k.

تاب برداشتن *homilador bo'lmoq*, گریختن *qiyshayib qolmoq*, درز برداشتن *yoriq (darz) paydo bo'lmoq* va h.k.

Garchi fors tilidagi fe'llarning katta qismini tashkil etuvchi yoki sodda va prefiksli fe'llarga nisbatan ko'p bo'lgan qo'shma fe'llar orasida ham ko'pma'nolilik bilan ajralib turadigan fe'llar uchrasa-da, bu holatni ko'pchilik qo'shma fe'llarga xos deb bo'lmaydi. Bir tomondan, tilda oldindan mavjud bo'lgan sodda fe'llarning sinonimlari yoki funksional ekvivalentlari sifatida, ikkinchi tomondan, fors tiliga chet tillardan, birinchi navbatda arab tilidan o'zlashgan so'zlar ishtirokida fe'l yasash natijasida [25:236-246] hosil bo'lgan fors tilidagi qo'shma fe'llarning katta qismi asosiy ma'nodan tashqari yana bir-ikki ko'chma ma'noga ega. Ammo ular orasida ko'pma'noli fe'llar ham talaygina. Fors tilida eng ko'p ma'noga ega bo'lgan qo'shma fe'llardan biri sifatida quyidagi fe'lni eslatish mumkin:

بررسی کردن [barresi kardan] 1) *tekshirmoq, tekshirib ko'rmoq*; 2) *o'rganmoq, o'rganib chiqmoq, ko'rib chiqmoq*; 3) *o'ylab ko'rmoq*; 4) *muhoqama qilmoq*; 5) *o'rta tashlamoq, ko'tarib chiqmoq*; 6) *tadqiq qilmoq* va h.k.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, fors tilidagi ko'pchilik fe'llarning katta valentlik (boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib, ular bilan birikish) qobiliyatiga ega ekanligi ham ular vositasida turli o'rinlarda turli ma'nolarning ifodalanishi uchun imkoniyat yaratadi. Biz yuqorida eslatib o'tgan eronlik tadqiqotchi L. Sharifiy o'zining افتادن [oftādan] sodda fe'lining turli kontekstlarda qo'llaniladigan ma'nolari – leksik-semantik variantlariga bag'ishlangan maqolasida ushbu fe'lning qanchalik katta valentlik qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatib berar ekan, ushbu fe'lning gapdagi turli gap bo'laklari va turli so'z turkumlariga oid so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib saksontacha ma'noni ifodalashda ishtirok etishini aniqlaganini eslatadi [15:12]. Ushbu tadqiqotchi tomonidan keltirilgan quyidagi gap va jumalalarda افتادن [oftādan]

sodda fe'lining boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib turli ma'nolarni ifodalashda ishtirok etganini kuzatamiz:

سيب از درخت به زمين افتاد (به معنى «سقوط كردن»);

Olma daraxtdan yerga tushdi ("pas'ga tushib ketmoq" ma'nosida).

در پي ما افتادند (به معنى «آمدن»);

Bizning izimizdan tushishdi ("kelmoq" ma'nosida).

نمی دانم در آن حال به چه خيال افتاده بودم (به معنى «داشتن»);

O'sha holda ne xayolga borganimni bilmayman ("ega bo'lmoq" ma'nosida).

فشار خونم افتاد پايين (به معنى «کم شدن»);

Qon bosimim tushdi ("kamaymoq", "pasaymoq" ma'nosida).

اين جعبه خيلى سنگين است، دستم افتاد (به معنى «بى رمق شدن»);

Bu quti juda ham og'ir, qo'lim toliqib qoldi ("toliqmoq" ma'nosida).

Sodda va prefiksli fe'llarning fors tilidagi ish-harakatni ifodalash hamda gap tuzilishida tutgan o'rnini e'tiborga olmaslik mumkin emas. Aynan soni jihatdan qo'shma fe'llardan sezilarli darajada kam bo'lgan mazkur sodda fe'llargina mahsuldor hisoblanadi, ya'ni bitta sodda fe'l zahirida kamida 5-10 ta yangi so'z yasallishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari, shuni ham unutmaslik lozimki, sodda fe'llar fors tilidagi prefiksli va qo'shma fe'llarning yasallishida ham katta rol o'ynaydi. Masalan, Dehxudo, Muin, Soxan izohli lug'atlari hamda Rubinchik tahriri o'stidagi 2 tomlik lug'atdan *sāxtan* sodda fe'lining hosilalarini aniqlash davomida quyidagilar ma'lum bo'ldi. Albatta shuni ham ta'kidlash lozimki, ushbu fe'l hosilalari qaysi usulda yasallganligi va so'z yasallishining qaysi turiga mansubligi, ularning mahsuldor yoki mahsulsiz ekanligini aniqlash alohida tadqiqot olib borishni talab qiladi. Biz faqatgina umumiy manzara hosil bo'lishi uchun ushbu hosilalarni keltirishni lozim topdik:

ساخت و پاخت، ساخت و ساز، ساخته و آمده، ساخته و پرداخته، ساز و رسم، ساز و ساخت، ساز و سامان، ساز و سوز، ساختگی، ساختمان، ساختنی، ساخته، سازش، سازشکار، سازشکاری، سازشنامه، سازگار، سازگاری، سازمان، سازمان دهنده، سازمند، سازمندی، سازندگی،

سازنده، سازوار، سازواری، سازور، ساختهکاری، سازمانی، سازماندهی، سازمانبندی، سازشکارانه، سازگار، سازگاری، سازه، سازشناپذیر، ساختمانسازی، ساختار، ساختارگرا، ساختارگرایی، سازمانده، ساختشناسی، ساختهرنگ، ساختهروی، ساختهکاجار، ساختهلگام، ساختزر، ساختآماج، سازجفت، بد ساخت، خوش ساخت، ساخت، ساز.

Bulardan tashqari *sāz* yarimaffiksi bilan yasalluvchi yaratish, ta'mirlash, qurish ma'nolarini ifodalovchi ko'pgina so'zlar mavjud:

بخاریساز، ساعتساز، آینهساز، آهنگساز، فیلمساز، چاقوساز، داروساز، خاتمساز، مجسمهساز، ترانهساز، بخاریساز، قفلساز، ساعتساز، دوچرخهساز، سمورساز، دستساز، نوساز...

Sāxtan sodda fe'li vositasida yasallgan qo'shma fe'llar salmog'i ham sezilarli darajada ekanligi quyidagi jadvaldan ma'lum bo'ladi:

Hozirgi zamon fe'l negizi yordamida yasallgan fe'llar:

ساز آمدن، سازش دادن، سازش داشتن، سازش کردن، ساز کردن، سازگار بودن، سازگاری کردن، ساز گرفتن، سازمان دادن، سازمان یافتن، سازوار آمدن، سازوار شدن.

O'tgan zamon fe'l negizi yordamida yasallgan fe'llar:

ساخت انداختن، ساخت و پاخت کردن، ساختگی کردن، ساخت افکندن، ساخت فرو کردن، ساخت تمام کردن، ساخته شدن، ساختمان کردن، ساخت فرو گشادن، ساخت گشادن، ساخته کردن، ساخته کاری کردن، ساخته بودن.

XULOSA

Ko'rib chiqqanimizdek, birgina *sāxtan* sodda fe'li 53 dan ziyod yangi so'z va 25 dan ortiq yangi murakkab fe'llar yasallishida ishtirok etyapti.

Bundan tashqari *sāxtan* fe'li qo'shma fe'llarning ikkinchi komponenti sifatida ham bir qancha qo'shma fe'llarning yasallishida ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amid, Hasan. Farhang-e Amid. Dar 3 jeld. - Tehron, 1389.
2. Anvari, Hasan, farhang-e bo'zo'rg-e so'xan / be sarparasti-ye Hasan Anvari. 8 jeld. - Tehron: so'xan, 1381.
3. Anvari, Hasan; Ahmadi Givi, Hasan, dastur-e zabon-e forsi 2. - Qo'm: enteshorot-e Fotemi, 1375.
4. Anvari, Hasan; Ahmadi Givi, Hasan, dastur-e zabon-e forsi 2. - Qo'm: enteshorot-e Fotemi, 1373.

5. Arifdjanov, Z. (2020). Functional equivalents of the simple verb ناستاوخ [xāstan] and their formal invariants. *The Light of Islam*, 2020(1), 163-170.
6. Arifdjanov, Z. (2020). The semantic groups of prefixal verbs in the persian language and their functional equivalents (using the verb ناستاودرب [bar-dāstan] as an example). *The Light of Islam*, 2020(2), 68-74.
7. Azimdzhanova D.A. Sinonimiya glagolnoy leksiki persidskogo yazika: Dis. ... kan.fil.nauk. – Tashkent, 1997.
8. Dehxo‘do, Ali Akbar. Lo‘g‘atnoma-ye Dehxo‘do. Dar 22 jo‘zve. - Tehron, 1324-1359.
9. Do‘kto‘r Hasan Anvari, Doktor Hasan Ahmadi Givi, dastur-e zabon-e forsi 2, viroyesh-e sevvo‘m. – Tehron: Fotemi, 1373.
10. Do‘kto‘r Parviz Notali Xonlari. Torix-e zabon-e forsi, baxshi az jeld-e do‘vvo‘m, soxtemon-e fe‘l. – Iron: Enteshorot-e bonyod-e farhang.
11. Go‘fto‘gu bo G‘o‘lom Hoseyn Sadri Afshor moallaf-e forsi-ye emruz // 29 no‘vombr 2011 // www.ichodoc.ir
12. Hasan Karimpur. Bog‘-e Morshol. Jeld-e do‘vvo‘m: sargo‘zasht-e Nohid va ... Nashr-e vohedi, 1379.
13. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
14. Karimi S. Complex predicates in Iranian languages, opening remarks. – Paris, 2008.
15. Leylo Sharifi. Ruykardi-ye shenoxti be yek fe‘l-e chandma‘noyi-ye forsi // tozehoye o‘lum-e shenoxti, sol-e 11, sho‘more-ye 4, 1388.
16. Mo‘in Mohammad. Farhang-e mo‘in. Dar 6 jeld. Jeld 1. - Tehron, 1342.
17. Mohutiyon Shahrzod, dastur-e zabon-e forsi. - Tehron: nashr-e markaz, 1387.
18. Notali Xonlari, Parviz, dastur-e torixi-ye zabon-e forsi. Tehron: enteshorot-e tus, 1373.
19. Notali Xonlari, Parviz, torix-e zabon-e forsi, jeld-e 2, soxtemon-e fe‘l. - Tehron, 1349.
20. Notali Xonlari, Parviz. Dastur-e zabon-e forsi. - Tehron: enteshorot-e tus, 1359.
21. Persidsko-russkiy slovar: v 2-x tomax, pod redaksiyey Yu.A.Rubinchika, 3-izdaniye. I-tom. – Moskva: Russkiy yazik, 1985.
22. Rubinchik Yu.A. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazika. – Moskva: Vostochnaya literatura RAN, 2001.
23. Sadri Afshor G‘o‘lom Ho‘seyn. Farhang-e forsi-ye emruz. - Tehron: moassese-ye nashr-e kalame, 1369.
24. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
25. Sodeqi Ali Ashraf. Dar bore-ye fe‘lho-ye ja‘li dar zabon-e forsi // majmue-ye maqolot-e seminor-e zabon-e forsi va azabon-e elm. - Tehron, markaz-e nashr-e doneshgohi, 1372.
26. Tabibzode, Omid. So‘tur-e zabon-e forsi: bar asos-e nazariye-ye go‘ruhho-ye xo‘dgardon dar dastur-e vobastegi. - Tehron: nashr-e markaz, 1391.
27. Internet saytlari
28. <http://parsianjoman.org/?p=3937>
29. https://www.bbc.com/persian/arts/story/2008/06/080602_an-batani-article.shtml